



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№4(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 506 sahifa,
2-aprel, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woogyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning mintaqaviy va global geosiyosiy pozitsiyasi: milliy o'zlik va media reprezentatsiya tahlili	16
Salim Doniyorov	
Axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida o'quvchilarning adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirish	21
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich, Xoldarova Gulchehra Tajibayevna	
Adabiy tahlil kompetensiyasini shakllantirishda elektron darsliklar va multimedia vositalaridan foydalanish.....	26
Djo'rayev Yorqin Xolnizozovich	
Ta'limdagi hurfikrlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	29
Yunusov Dilshod Raxmatovich	
Boshlang'ich ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi.....	32
Aliqulova Habiba Bahranovna	
Ayollar boksida jismoniy tayyorgarlikning yosh qizlar salomatligiga ta'siri	36
Majidov Ruslan Rustam o'g'li, Komilova Ismigul O'ktamjon qizi	
Talaba-yoshlarda internet risklarning oldini olishning pedagogik modeli	41
Muradova Maftuna Komilovna, Mamadaliyeva Umida Isroiljonovna	
Диагностика креативности студентов педагогических вузов в процессе изучения специальных дисциплин.....	44
Уразова Марина Батыровна, Соибова Толифа Дилмуродовна	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning metodik xususiyatlari.....	49
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Mariya Montessori ta'limida bolalarning mustaqilligini va ijodiy faoliyatini rivojlantirishning pedagogik-didaktik shart-sharoitlari.....	53
Asqarova Ma'mura Sadriddinovna	
O'spirinlik yoshida namoyon bo'ladigan agressiv xulqning psixologik xususiyati	59
Atajanova Xurjon Pirnazar qizi	
O'zbekiston jurnalistikasining rivojlanishida jadidlarning o'rni: jurnalistikada yangi trend	64
Murtozayeva Nigora Murtoza qizi	
Virtual ta'lim texnologiyasining ta'lim jarayonini takomillashtirishdagi ahamiyati.....	67
Muxsiyeva Aziza Shamsitdinovna	
Kelajakdagi o'qituvchilarning pedagogik kreativligini ta'limiy o'yinlar orqali rivojlantirish yo'llari	69
N. A. Musayeva	
Talabalarda lisoniy tafakkurni shakllantirishga psixolingvistik yondashuvning didaktik tamoyillari	76
Odiljonova Kamola Abduvosit qizi	
Strategies for Overcoming Difficulties in Using Authentic Materials in English Language Teaching	81
Qosimov Jaloliddin Abduvali o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ta'limni tashkil etishning pedagogik imkoniyatlari	84
Qurbonova Buzaynab Nurmuxammadiyevna	
Inspektor-psixologlarda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning kasbiy faoliyatdagi ahamiyati	87
Raxmanova Dilnoza Farmanovna	
Qo'ng'iro't tumani toponimlarining leksik-semantik va genetik xususiyatlari	90
Shamshaddinova Saodat Saparbayevna	
Variativ yondashuv asosida 5–9-sinf o'quvchilarida valeologik madaniyatni rivojlantirishning didaktik modeli va metodik ta'minoti	93
Shamuratov Asqar Abdullayevich	



The Structural Composition and Developmental Stages of Critical Thinking Skills.....	98
<i>Shuxratjon Ismoiljonov Boymirza o'g'li</i>	
Yosh rahbar kadrlarni lavozimlarga tayinlashning psixologik xususiyatlari.....	106
<i>Sobitov Otabek</i>	
O'zbekistonda erta turmush qurish masalasi va uning psixologik tahlillari.....	111
<i>Sodiqova Gulbarno Odiljon qizi</i>	
Adaptiv sportning inklyuziv ta'lim tizimida alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan o'quvchilarning jismoniy va funksional rivojlanishidagi ahamiyati.....	114
<i>Xasanova Sarvinov To'liqinjon qizi</i>	
Yosh futbolchilarda texnik mahoratni rivojlantirishda differentsiallashgan mashg'ulotlar modelini qo'llash samaradorligi	118
<i>Zayniddinov Tojiddin Baxriddinovich</i>	
Фразеологизмы как носители культуры: проблемы перевода и методы обучения	123
<i>Хамидова Гулноза Турсунбой кизи</i>	
Talabalarni kreativ yondashuv asosida tarbiyaviy–innovatsion faoliyatga tayyorlash jarayonlari.....	127
<i>Adizova G. M.</i>	
Iqtidorli bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash	131
<i>Ismoilova Adolat Anvarovna</i>	
STEAM – ta'lim texnologiyasi asosida o'quvchilarning fazoviy tasavvurlarini rivojlantirish metodikasi	134
<i>So'fiboyeva Gulchehra Mamurjonovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar va kompetentlikni shakllantirishning pedagogik asoslari.....	138
<i>Fayzullayeva Xovoxon Xayrullo qizi</i>	
Inklyuziv ta'limga muhtoj bolalar bilan ishlashda tarbiyachining roli.....	142
<i>Mansurova Lobar Luqmon qizi, Boqiyeva E'zoza Mashrab qizi</i>	
Rivojlanishida nuqsoni bor bolalarni ta'lim-tarbiyalashning ilmiy-pedagogik asoslari.....	146
<i>Tojiboyeva Osiyoxon Alisher qizi</i>	
Xalqaro ta'lim tashkilotlari faoliyatining nazariy asoslari.....	150
<i>Abdusamadova Aziza Kamoliddin qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni ijtimoiy texnologiyalar asosida ijtimoiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimi sifatida.....	153
<i>Shanazarov Otabek</i>	
Maktabgacha ta'limda STEAM yondashuvini loyiha asosida joriy etishning pedagogik strategiyalari	158
<i>Radjapova Xuzra Tirkashevna, Abdullayeva Sarviniso</i>	
Matematika ta'limida modellashtirishning psixologik va metodik asoslari: disum loyihasi tahlili.....	161
<i>Xaydarov Xurshid Ismatovich</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda gandbolchilarning tezkorligini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari.....	166
<i>Ismatullayeva Zuhra Rustam qizi</i>	
Osiyo xalq o'yinlari asosida jismoniy tarbiya jarayonini samarali tashkil etishning pedagogik shartlari	170
<i>Abdullayev Yashnarjon Mahkamovich</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarning innovatsion kompetentligini shakllantirishda klasterli ta'lim muhitining imkoniyatlari.....	173
<i>Abduraxmanov M. B.</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tanqidiy fikrlash.....	178
<i>Chinaliyeva Ayjamal Baxitjanovna</i>	
Talabalarda raqamli ta'lim madaniyatini rivojlantirish.....	181
<i>Eshqurbonova Nafisa Bahodir qizi</i>	
Blended Educational Technologies in Higher Education: A Systematic Analysis of Foreign Research.....	183
<i>Fozilova Maxina Adashevna</i>	
Voyaga yetmaganlarda deviant xulq shakllanishida ijtimoiy-psixologik omillarning roli.....	188
<i>Galdiyeva Mehribon Durdiyevna, Saydazimov Alisher Nurali o'g'li</i>	

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Boshlang'ich tayyorlov guruhida ulotqirish texnikasi elementlarini o'rgatish samaradorligi.....	191
	Hayitmurodova Nasiba Abdusalimovna	
	Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tarbiya fanini o'qitishning metodik tayyorgarligini takomillashtirish zaruriyati.....	197
	Inoyatova Zulfiya Xamdammovna	
	Talabalarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga jalb etishning metodologik asoslari.....	199
	Karimova Madinabonu Dilshodbek qizi	
	Kompetentligini baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish.....	203
	Kayumov Oybek Achilovich	
	Kasbiy refleksiya asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahoratini rivojlantirish.....	209
	Miraxmedova Mubina Mirxalil qizi	
	Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish.....	211
	Nisanbayeva Akmaral Kaldibayevna	
	Maxsus ta'lim dasturlari orqali iqtidorli talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish.....	214
	Rayimova Shahlo Sobirjon qizi	
	STEAM ta'limida ijtimoiy intellektni rivojlantirish metodlari.....	217
	Toshev Elbek Choriyevich	
	Innovatsion texnologiyalar va ularning tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlash tizimidagi roli.....	223
	Usmanov Botir Allaberdievich	
	Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda volontyorlik faoliyatining ahamiyati.....	227
	Xalilova Dilnoza Furkatovna	
	Boshlang'ich sinflarda robototexnikaning ahamiyati va o'rni.....	230
	Xodiyeva Dilrabo Pirimovna	
	Working With Visual AIDS in Teaching English in Primary Education.....	233
	Yunusova Nodira Akhmadjanovna	
	Teatr texnologiyalarini maktabgacha ta'limga integratsiya qilishning pedagogik shartlari.....	237
	Abdullayeva Aziza Abdurazzoq qizi, Salimova Dilmira Farxodovna	
	The Psychological Impact of Social Media on Youth.....	242
	Dilfuza Qarshiboyeva	
	Maktab direktori nutq etiketi – ta'lim menejmentida jamoatchilik bilan samarali muloqot asosi.....	246
	Islamova Dilfuza Dilshodovna	
	Dizartriyali bolalar monologik nutqini innovatsion texnologiyalar orqali rivojlantirish.....	250
	Pardayeva Muxlisa	
	Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishida bilish jarayonlarning ahamiyati.....	257
	Xaydarova Umidaxon Baxromjon qizi	
	Enhancing the Professional Competence of English Language Teachers.....	259
	Karimova Dilshoda Sodiqjon qizi	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda montessori metodi bo'yicha sezgir davrlar.....	264
	Tojiakhmedova Maftuna Umarjon qizi	
	"Personal learning assistant" vositalari asosida bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimidagi zamonaviy tendensiyalar tahlili.....	268
	Muradova Maftuna Komilovna, Turobova Ro'zoy Bekmurotovna, Xayrullayev Mo'minbek Anvar o'g'li	
	Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida adabiy-nutqiy kompetensiyalarni shakllantirish metodikasi.....	272
	Ravshanova Dildora Sagdullayevna	
	Raqamli ta'lim sharoitida elektron axborot-ta'lim muhitining mohiyati va tarkibiy tuzilmasi.....	279
	Temurov Sobirjon Yo'ldoshevich	
	Zamonaviy ta'lim menejmentida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati (boshlang'ich ta'lim misolida).....	283
	Pardaboyev Doston	
	Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oilaning hamkorligida qadriyatlar tarbiyasining amaliy asoslari.....	286
	Xaydarova Mavluda Mo'yidinjon qizi	



Zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari integratsiyasi asosida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bosqichlari va samarali shakllari.....	292
<i>G'oziyeva Mohlaroyim Qodirxon qizi</i>	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega bo'lgan bolalarning (aqliy nuqson) ovqatlanish tartibi	295
<i>Sh. M. Ro'ziyeva</i>	
Boshlang'ich sinflarda ona tili darslarida imlo savodxonligini oshirishda geymifikatsiya o'yini orqali samarali tashkil etish	299
<i>Mergenbaeva Asiya Erkebaevna</i>	
Musiqa o'qituvchisining pedagogik muloqatining ta'lim jarayonidagi ahamiyati	304
<i>S. M. Raxmonberdiyeva</i>	
Ijtimoiy-maishiy hayotga yo'naltirish darslarida zaif eshituvchi o'quvchilarning nutqini rivojlantirish	307
<i>Abdulxamidova Gulnoza</i>	
Ispaniya davlati ijtimoiy hayoti, madaniyati va o'ziga xos ta'lim tizimi	311
<i>Umarova Malika Xisabidinovna, Sabirova Nodira Ibrohimovna</i>	
Ertaklardagi so'zlardan foydalangan holda nutqi rivojlanmagan bolalarda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish metodologiyasi	316
<i>G'opporova Mahliyoxonim</i>	
Tarbiya fanida hadislar va milliy qadriyatlarni integratsiya qilishning pedagogik imkoniyatlari	319
<i>Axmedov Boburjon Vasikovich</i>	
Chaqiriqqacha harbiy ta'lim tizimida o'quv-biluv kompetensiyalarini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari	324
<i>Mirzayev Shavkat Turdibayevich</i>	
Mustaqil ta'lim olish faoliyati tushunchasining pedagogik mohiyati va tarkibiy tuzilmasi (fizika fani bo'yicha).....	328
<i>Esanmurodov Otamurod Boboqand o'g'li</i>	
Oliy ta'limda immersiv yondashuvning mohiyati.....	333
<i>Muradova Maftuna Komilovna, Jontemirova Nozima Abdijabbor qizi</i>	
Yengil atletika mashg'ulotlari tizimida sportchilarning psixologik tayyorgarligini shakllantirish va rivojlantirishning ilmiy-pedagogik asoslari.....	337
<i>Yigitaliyev A. F.</i>	
Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasida o'quvchilarning harakat faolligini rivojlantirishning zamonaviy pedagogik mexanizmlari.....	343
<i>D. R. Abdusalomov</i>	
Futbolchilarni tayyorlash jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llashning samaradorligi...	348
<i>Mirbabayev Muzaffar Ismatillayevich</i>	
Empirik tushunchalar va ularning hospital pedagogikadagi pedagogik-psixologik roli	353
<i>Sapayeva Mavluda Shanazarovna</i>	
Ayollarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurash va huquqiy himoya.....	357
<i>Ibragimova Feruza Bahodirxonovna</i>	
Integrativ yondashuv asosida kongruentlik kompetensiyasini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar.....	362
<i>Kamalova Dilobar Tairovna</i>	
Og'ir atletikachilarning ko'p yillik tayyorgarlik jarayonini tashkil etish	366
<i>Raximov Farxod Maxmudovich</i>	
Haqiqiy materiallardan foydalangan holda o'qishni o'rgatish	370
<i>Axmedov Husen Uzairovich</i>	
Maktabgacha ta'limda innovatsion va fiziologik yondashuvlarning o'ziga xos xususiyatlari.....	376
<i>Ruziyeva Gulsara Temirqulovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarning jismoniy tarbiyasi.....	380
<i>Nazarov Zokir Abdurahmonovich</i>	
Tafakkur va mantiqiy fikrlash bo'lajak pedagog shaxsining nutq madaniyati omili sifatida	383
<i>A. Sh. Jumayev</i>	
Bo'lajak musiqa o'qituvchilarida turizm vositasida tolerantlikni rivojlantirish pedagogik muammo sifatida.....	386
<i>Abdumannatova Aziza Abdumajit qizi</i>	

Zamonaviy didaktik vositalar asosida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	390
<i>Asobayeva Noila Samatovna</i>	
Axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatda qo'llash" fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini samarali tashkil etish	395
<i>Axmedova Zebixon Siddikovna</i>	
Talaba shaxsini ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga qo'yilgan pedagogik talablar	399
<i>Boliyev Uchqun Ismatovich</i>	
Translation of Phraseological Units in Mass Media Texts.....	402
<i>Eshmurodova Ziyodaxon Urinbayevna</i>	
Phraseologisms in Modern Russian: A Corpus-Based Analysis of Structural, Semantic, and Functional Dynamics	405
<i>Farkhod Kholmatov</i>	
Yosh sportchilarda sprinterlik qobiliyatlarini rivojlantirishda o'yin uslubidagi mashqlarning o'rni.....	413
<i>G'oibov Yusufali Buxoraliyevich</i>	
Imitatsion mashqlarni nutqni avtomatizatsiyalash jarayonida qo'llash metodikasi	417
<i>G'aniyeva Muhabbat Lutfullayevna</i>	
1879-1894-yillarda yevropa va aqshdagi asos soluvchi laboratoriyalar evolyutsiyasi orqali eksperimental psixologiya genezisining qiyosiy-tarixiy tahlili.....	420
<i>Haydarov Farhod Ilnazarovich</i>	
Maktab direktori nutq etiketi – ta'lim menejmentida jamoatchilik bilan samarali muloqot asosi	423
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna</i>	
Bolalarda gigiyeniya qoidalarini o'rgatishning pedagogik ahamiyati	427
<i>Kalkonova Lutfiya Yusufovna, Safarova Qizlarxon</i>	
Kasbiy refleksiya va portfolio metodining ta'lim jarayonidagi ahamiyati	430
<i>Ismoilova Adolat Anvarovna, Kamoliddinova Mahliyoixon Zohidjon qizi</i>	
Практическая работа по развитию логического мышления учащихся начальных классов через дидактические игры	433
<i>Отажонов Ж. М., Мамарасулова М. А.</i>	
Umumta'lim maktablarida "tarbiya" fanini o'qitish jarayonida mavjud muammolar, ularning sabablari va takomillashtirish yo'llari.....	436
<i>Mamirova Shaxnoza Xudoyqulovna</i>	
Word Formation and Vocabulary Enrichment in Modern English and Uzbek Languages	440
<i>Muminova Feruza Muratdjanovna</i>	
Nodavlat ta'lim tashkilotlarining maktabgacha ta'lim tizimidagi o'rni va rivojlanish tendensiyalari	443
<i>Muminova Nargiza Sabitdjanovna</i>	
Shaxs taraqqiyotining turli bosqichlarida refleksiyaning rivojlanishi	447
<i>N. I. Xalilova</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda inklyuziv kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik asoslari	450
<i>Omanqulova Shohida Nematillo qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarda gender madaniyatni shakllantirishda milliy qadriyatlar va zamonaviy yondashuvning uyg'unligi	455
<i>O'tkirova Zuhaxon Ahmedjanovna</i>	
Developing Listening and Speaking Skills in Middle School	458
<i>Rakhmonova Dilrabokhon Salokhiddin kizi</i>	
Bolalarda gigiyena qoidalarini o'rgatishning pedagogik ahamiyati	461
<i>Kalkonova Lutfiya Yusufovna, Safarova Qizlarxon</i>	
Avlodlar nazariyalari haqidagi mulohazalarning nazariy tahlili: baby boomerlar, X, Y, Z avlodlari.....	464
<i>Umarova Sitora Muxlisovna, Sharifova Mahtob Murodjonovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	467
<i>Abrorxonova Kamolaxon Abrorxon qizi, Sofoyeva Oysha Davlatyorovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda arifmetik amallarni o'rgatishning samarali metodlari.....	470
<i>Solijonova Mavluda Zokir qizi</i>	



Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari.....	472
<i>Toxirov Botirjon G'ofurjon o'g'li</i>	
Chaqiriqqacha harbiy ta'limda talabalarning harbiy ko'nikmalarini shakllantirishda psixologik omillarning o'rni.....	477
<i>Tursunov Shaxzod Ramazonovich</i>	
Bolalarning jismoniy faolligini oshirish va jismoniy rivojlantirish bo'yicha noan'anaviy jismoniy mashqlarning ahamiyati	480
<i>Xalmatova Nasiba Bozorboyevna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ekologik tafakkurni rivojlantirish muammolari	485
<i>Yaxshiboyeva Nargiza Rustamqulovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-bilish faolligini rivojlantirishda bolalar adabiyotidan foydalanish ..	488
<i>Yuldoshova Mehriniso Ochildiyevna</i>	
Hosila va uning tatbiqlarini o'rgatishda zamonaviy yondashuvlar	491
<i>Absamatov Zuxriddin Axmad o'g'li</i>	
Развитие речи у детей как ключевой фактор формирования личности.....	496
<i>Дустова Дилдора Собиржановна</i>	
Boshlang'ich sinflarda geometrik tasavvurlarni shakllantirish metodikasi	498
<i>Imamova Nasiba Xurramovna</i>	
Дидактические основы подготовки будущих педагогов к лекционной деятельности.....	501
<i>Нодира Азаматова</i>	

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA “TARBIYA” FANINI O'QITISH JARAYONIDA MAVJUD MUAMMOLAR, ULARNING SABABLARI VA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

UDK: 37.013.2

Mamirova Shaxnoza Xudoyqulovna

Guliston davlat pedagogika instituti,
Pedagogika va psixologiya kafedrasida stajyor-o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim maktablarida “Tarbiya” fanini o'qitishdagi asosiy muammolar tahlil qilinadi. Globallashuv sharoitida ta'limni yangilash zarurligi ko'rsatilib, o'qituvchilar tayyorgarligi, baholash tizimi, interfaol metodlar va maktab – oila – mahalla hamkorligidagi kamchiliklar aniqlanadi. Muammolarni hal etish uchun o'qituvchilarni tayyorlash, diagnostik baholashni joriy etish va media savodxonlikni kuchaytirish taklif etiladi.

Kalit so'zlar: tarbiya, umumta'lim maktabi, tarbiyaviy jarayon, pedagogik diagnostika, interfaol metodlar, media savodxonlik, hamkorlik.

Abstract: The article analyzes the main problems in teaching the subject “Education” in general secondary schools. In the context of globalization, the need to modernize educational processes is emphasized, and shortcomings in teacher training, assessment systems, interactive methods, and school – family – community cooperation are identified. To address these issues, it is proposed to improve teacher training, introduce diagnostic assessment, and strengthen media literacy.

Key words: education, general secondary school, educational process, pedagogical diagnostics, interactive methods, media literacy, cooperation.

Аннотация: В статье анализируются основные проблемы преподавания предмета “Воспитание” в общеобразовательных школах. В условиях глобализации подчеркивается необходимость обновления образовательного процесса, выявляются недостатки в подготовке учителей, системе оценивания, применении интерактивных методов и сотрудничестве школа – семья – махалля. Для решения этих проблем предлагается совершенствование подготовки учителей, внедрение диагностического оценивания и усиление медийной грамотности.

Ключевые слова: воспитание, общеобразовательная школа, воспитательный процесс, педагогическая диагностика, интерактивные методы, медийная грамотность, сотрудничество.

KIRISH

Bugungi kunda umumta'lim maktablarida “Tarbiya” fanini samarali o'qitish masalasi alohida bir fan metodikasi doirasidagi tor vazifa bo'lib qolmay, yosh avlodning ma'naviy-axloqiy, fuqarolik, huquqiy va ijtimoiy kamolotini ta'minlashga qaratilgan strategik pedagogik yo'nalish sifatida namoyon bo'lmoqda. Raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va ochiq axborot makonining kengayishi sharoitida o'quvchilarning dunyoqarashi, qadriyatlar va xulq-atvoriga ko'plab tashqi omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Shuning uchun maktab ta'limida tarbiyaviy mazmuni shunchaki og'zaki nasihat yoki mavhum tushunchalar shaklida emas, balki o'quvchining kundalik hayoti, ijtimoiy tanlovi va axloqiy qarorlari bilan uzviy bog'liq tizim sifatida tashkil etish zarurati kuchaymoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida har kimning ta'lim olish huquqi mustahkamlangan bo'lib ^[1:50-modda], “Ta'lim to'g'risida”gi Qonunda ta'lim sohasining asosiy prinsiplari hamda ta'lim olish huquqining huquqiy asoslari belgilangan ^[2:4-modda], ^[2:5-modda]. Mazkur me'yoriy asoslar tarbiya va ta'limning ajralmas birlik ekanini tasdiqlaydi. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son qaroriga muvofiq “Odobnoma”, “Vatan tuyg'usi”, “Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlari integratsiyasi asosida yagona



“Tarbiya” fani 1-9-sinflarda 2020/2021 o‘quv yilidan, 10-11-sinflarda esa 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab joriy etildi [3:1-band]. Mazkur holat “Tarbiya” fanining davlat ta’lim siyosatidagi alohida o‘rnini ko‘rsatadi.

Maqolaning maqsadi umumta’lim maktablarida “Tarbiya” fanini o‘qitish jarayonida mavjud muammolarni aniqlash, ularning sabablarini ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilish va fanni takomillashtirishga qaratilgan amaliy takliflarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot predmeti sifatida “Tarbiya” fanining mazmuni, metodikasi, baholash tizimi va hamkorlik mexanizmlari olindi. Ishning amaliy ahamiyati shundaki, unda taklif etilgan yondashuvlar maktab o‘qituvchilari, sinf rahbarlari, metodistlar hamda tarbiyaviy ishlar bo‘yicha mas’ul mutaxassislar uchun metodik tayanch bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, “Tarbiya” fanini o‘qitish muammosi pedagogika, psixologiya, etika, estetika va sotsiologiya singari qator fanlar kesishgan nuqtada shakllanadi. Tarbiya nazariyasi va metodikasiga bag‘ishlangan ilmiy manbalarda tarbiya jarayoni o‘quvchi shaxsining ongi, hissiyoti va irodasiga bir vaqtning o‘zida ta’sir etuvchi murakkab pedagogik jarayon sifatida talqin etiladi. Xususan, tarbiya metodikasiga oid zamonaviy qo‘llanmada ushbu fan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan “Tarbiya” darsining mazmuni, tamoyillari, metodlari, vositalari, shakllari va texnologiyalarini o‘rganadigan pedagogik soha ekani, uning predmeti esa o‘quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida axloqiy, huquqiy, ma’naviy, estetik va ekologik qarashlarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi pedagogik jarayon ekanligi ta’kidlanadi [11:4,5].

M.Abdullayeva va R.H.Jo‘rayevning ishlari tarbiya mazmunini zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitish, darsni interfaol usullar asosida tashkil etish hamda tarbiyaviy jarayonni natijaga yo‘naltirish zarurligini asoslaydi. Ushbu tadqiqotlarda ayniqsa shaxsiga yo‘naltirilgan va kompetensiyaviy yondashuvlarning tarbiyaviy darslar samaradorligini oshirishdagi roli ko‘rsatib beriladi. Biroq amaliyotda mazkur nazariy xulosalarning to‘liq tatbiq etilmayotgani kuzatiladi. Demak, ilmiy adabiyotlarda ishlab chiqilgan konseptual yondashuvlarni maktab amaliyotiga moslashtirish masalasi hanuz dolzarb bo‘lib qolmoqda.

Sharq pedagogik tafakkuriga doir tadqiqotlarda tarbiya masalasi shaxs kamolotining ma’naviy, axloqiy va estetik asoslari bilan uzviy bog‘liq holda yoritiladi.

Z.Jalilov va M.Pazilova tadqiqotlarida mutafakkirlar merosida tarbiya, ma’naviyat va qadriyatlar uzviyligi ochib berilgan bo‘lsa, Nabi Jumaboyevning ilmiy maqolalarida Sharq pedagogikasida go‘zallik, axloq va estetik tarbiya o‘rtasidagi aloqadorlik maktab va oliy ta’limdagi tarbiyaviy jarayonga tatbiq etish nuqtayi nazaridan sharhlanadi [8:170], [9:9], [10:218].

Mazkur yondashuvlar “Tarbiya” fanining mazmunini faqat ijtimoiy xulq me’yorlari bilan emas, balki ma’naviy-estetik kamolot masalalari bilan ham boyitish zarurligini ko‘rsatadi.

Qo‘shimcha manba sifatida foydalanilgan “Tarbiya fanini o‘qitish metodikasi” o‘quv qo‘llanmasida fanlararo integratsiya, darsni rejalashtirish, bahs-munozara, ijodiy topshiriq, rolli o‘yinlar va tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha aniq metodik ko‘rsatmalar berilgan [11:5]. Mazkur qo‘llanmadagi qarashlar ilmiy adabiyotlar sharhini amaliy metodik jihatdan boyitishga xizmat qildi. Shu bilan birga, Termiziy allomalarning pedagogik merosiga oid o‘quv-uslubiy qo‘llanma sharqona tarbiyaviy qarashlarning ma’naviy-axloqiy asoslarini tadqiqotning konseptual fonini kengaytirishda muhim manba sifatida qaraldi [12].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, qiyosiy-tahliliy va aksiologik yondashuvlar tashkil etdi. Ishda “Tarbiya” fanini faqat o‘quv rejasidagi predmet sifatida emas, balki maktabning umumiy tarbiyaviy muhiti bilan bog‘liq kompleks pedagogik hodisa sifatida ko‘rish tamoyili qo‘llandi. Mazkur yondashuv tanlanishi bejiz emas, chunki tarbiya natijalari dars mazmuni, o‘qituvchi kompetensiyasi, sinf muhiti, oilaviy ta’sir, baholash mezonlari va ijtimoiy hamkorlikning birgalikdagi ta’sirida shakllanadi.

Metodlar majmuasi normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilish, pedagogik va metodik adabiyotlarni qiyosiy o‘rganish, kuzatish, suhbat, so‘rovnoma, hujjatlar tahlili, pedagogik eksperiment elementlari hamda diagnostik yondashuvlardan tashkil topdi. Qo‘llanmada qayd etilishicha, tarbiya metodikasining ilmiy-tadqiqot metodlari qatoriga kuzatish, so‘rovnoma, suhbat, hujjatlarni tahlil qilish, eksperiment, pedagogik diagnostika hamda ilg‘or tajribalarni o‘rganish kiradi [11:21,22]. Tadqiqotda aynan mana shu metodlar mantiqiy uyg‘unlikda qo‘llanib, mavjud muammolarning faqat tashqi belgilari emas, balki ularning sabab-oqibat aloqalari ham ochib berildi.

Tahliliy material sifatida amaliy kuzatuvlar, so‘rovnoma natijalari, dars ishlanmalari, tarbiyaviy reja-jadvallar va o‘quv-metodik materiallar umumlashtirildi. So‘rovnoma natijalari yordamida muammolarning ustuvor yo‘nalishlari aniqlansa, kuzatish va suhbat orqali ularning dars jarayonidagi namoyon bo‘lish shakllari tahlil qilindi. Hujjatlarni o‘rganish metodi esa nazariy talab bilan amaliy ijro o‘rtasidagi tafovutni aniqlashga imkon berdi. Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi muammolarni ko‘p qirrali ravishda o‘rganish va ishonchli amaliy xulosalarga kelish uchun xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, "Tarbiya" fanini o'qitishdagi *birinchi yirik muammo* nazariy maqsad bilan amaliy natija o'rtasidagi nomuvofiqlikdir. Dasturiy hujjatlarda fan o'quvchilarda faol fuqarolik kompetensiyalarini shakllantirish, ma'naviy-axloqiy qarashlarni mustahkamlash, hayotiy pozitsiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lsa-da ^[3:1-band], amaliyotda ayrim darslar hanuz izohli-ma'ruza shaklida olib borilmoqda. Holbuki, tarbiya jarayonida o'quvchining ongi, hissiyoti va irodasiga birgalikda ta'sir ko'rsatish zarur ^[11:9,10]. Mazkur talablar bajarilmaganda tarbiyaviy mazmun o'quvchi uchun ichki e'tiqod va xulq mezoniga emas, balki tashqi talab darajasiga tushib qoladi.

Ikkinchi muammo o'qituvchining maxsus metodik tayyorgarligi bilan bog'liq. "Tarbiya" fanini o'qituvchi pedagog keng dunyoqarashga, fanlararo fikrlashga, bolalar psixologiyasini bilishga hamda darsni suhbat, bahs-munozara, rolli o'yin va vaziyatli topshiriqlar orqali olib borish ko'nikmasiga ega bo'lishi lozim ^[11:5]. Amaliyotda esa mazkur fan ko'pincha boshqa mutaxassislikdagi pedagoglarga qo'shimcha yuklama tarzida berilishi, natijada darsning metodik tabiati to'liq ochilmasligi kuzatilmoqda. Bu holat o'quvchiga yo'naltirilgan, muammoli vaziyatlarga asoslangan va refleksiv komponentlarga ega darslarni tashkil etishda qiyinchilik tug'diradi.

Uchinchi muammo baholash tizimining murakkabligidir. "Tarbiya" fanidagi natija an'anaviy fanlardagidek faqat bilim ko'rsatkichi bilan emas, balki o'quvchining munosabati, ijtimoiy faolligi, muloqot madaniyati, mas'uliyati va xulqiy tanlovida namoyon bo'ladi. Shu sababli sonli baholashning o'zi bu fandagi o'sish dinamikasini to'liq aks ettira olmaydi. Diagnostik yondashuvlardan foydalanish, jumladan, kuzatuv, portfolio, refleksiv yozuv, ijtimoiy loyiha, vaziyatli topshiriq va o'z-o'zini baholash elementlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi ^[11:21,22].

To'rtinchi muammo mazmun va metodik ta'minotning zamonaviy ehtiyojlarga to'liq moslashmaganidir. Bugungi kunda o'quvchi hayotiga media savodxonlik, kibexavfsizlik, soxta axborotga tanqidiy munosabat, internet etikasi, virtual muloqot madaniyati singari yangi mavzular chuqur kirib bormoqda. Biroq dars mazmunida bu yo'nalishlar ko'pincha epizodik ko'rinishda qolib ketmoqda. Tarbiya darslari matnni o'qish va izohlash bilan cheklanib qolsa, o'quvchi real hayotiy vaziyatlarga nisbatan mustaqil pozitsiya ishlab chiqa olmaydi. Shu bois fanning mazmunini zamonaviy ijtimoiy xavf va chaqiriqlar bilan uyg'unlashtirish, interfaol topshiriqlar bankini boyitish, yosh xususiyatlariga mos vaziyatli materiallar yaratish talab etiladi.

Beshinchi muammo maktab – oila – mahalla hamkorligining yetarli darajada tizimlashtirilmaganidir. Tarbiya darsida singdirilgan qadriyat oiladagi tarbiyaviy muhit bilan mustahkamlanmasa yoki mahalla va tengdoshlar muhiti bilan zid keladigan bo'lsa, o'quvchida qarama-qarshi me'yoriy tasavvurlar shakllanishi mumkin. Shu sababli tarbiyaviy ta'sir izchil bo'lishi uchun ota-onalarni faqat yig'ilishlarga emas, balki mavzuli seminar, oilaviy loyiha, birgalikdagi ijtimoiy tashabbus va maslahat jarayonlariga faol jalb etish zarur. Bu fikr sharqona tarbiyaviy qarashlarda ham muhim o'rin tutadi; unda ota-ona, ustoz va jamiyatning birgalikdagi mas'uliyati ta'kidlanadi ^{[7], [8:170], [12]}.

Amaliy kuzatuv va umumlashtirilgan so'rovnoma materiallari muammolarning ustuvorligini quyidagicha ko'rsatdi: mutaxassis o'qituvchilar yetishmasligi 38 foiz, o'quv-metodik qo'llanmalar yetarli emasligi 27 foiz, baholash mezonlarining noaniqligi 21 foiz, ota-onalar bilan hamkorlik sustligi 14 foiz. Mazkur ko'rsatkichlar asosida tarbiya darslari samaradorligiga eng kuchli ta'sir ko'rsatayotgan omil kadrlar va metodik ta'minot masalasi ekanini ko'rish mumkin. Statistik holat, ayniqsa, pedagoglarni maxsus tayyorlash, dars materiallarini yangilash hamda baholash vositalarini takomillashtirish vazifalarini birinchi o'ringa olib chiqadi.

1-jadval: "Tarbiya" fanini o'qitish jarayonida aniqlangan ustuvor muammolar

No	Muammo turi	Ulushi (%)
1	Mutaxassis o'qituvchilar yetishmasligi	38
2	O'quv-metodik qo'llanmalar yetarli emas	27
3	Baholash mezonlarining noaniqligi	21
4	Ota-onalar bilan hamkorlik sustligi	14

Izoh: jadval muallifning amaliy kuzatuvlari va umumlashtirilgan so'rovnoma materiallari asosida tuzildi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim maktablarida "Tarbiya" fanini o'qitish jarayoni zamonaviy ta'lim tizimining ma'naviy-ijtimoiy tayanchi sifatida alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Mazkur fan o'quvchilarda axloqiy yetuklik, fuqarolik pozitsiyasi, mas'uliyat, vatanparvarlik, muloqot madaniyati va ijtimoiy faollikni shakllantirishga xizmat qilishi bilan muhimdir. Biroq uning amaliy samaradorligi o'qituvchilarning metodik tayyorgarligi, fan mazmunining zamonaviy ehtiyojlarga mosligi, baholashning diagnostik xarakteri, yosh xususiyatlari hisobga olinishi hamda maktab – oila – mahalla hamkorligining izchilligi bilan chambarchas bog'liq.



Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi takliflar ilgari suriladi.

- *Birinchi*dan, “Tarbiya” fani o’qituvchilari uchun alohida malaka oshirish va sertifikatlash modullarini ishlab chiqish zarur. Mazkur modullarda tarbiyaviy kommunikatsiya, bolalar psixologiyasi, media savodxonlik, konfliktologiya, pedagogik diagnostika va interfaol metodlar markaziy o’rin tutishi kerak.
- *Ikkinchi*dan, zamonaviy o’quv-metodik platforma yaratilib, unda keyslar, videomateriallar, vaziyatli topshiriqlar, tarbiyaviy loyiha namunalarini jamlash maqsadga muvofiq.
- *Uchinchi*dan, baholash tizimi qayta ko’rib chiqilib, portfolio, reflektiv yozuv va ijtimoiy loyiha singari vositalarga asoslangan diagnostik model joriy etilishi lozim.
- *To’rtinchi*dan, maktab – oila – mahalla hamkorligining institutsional modeli ishlab chiqilib, unda har bir subyektning vazifasi va natija ko’rsatkichlari aniq belgilanishi zarur.
- *Beshinchi*dan, “Tarbiya” fanining mazmuni milliy qadriyatlar va zamonaviy ijtimoiy chaqiriqlar uyg’unligida qayta boyitilishi, ayniqsa, raqamli xavfsizlik, internet etikasi va tanqidiy fikrlashga oid mavzular bilan kengaytirilishi kerak.

Shu tariqa, “Tarbiya” fanini takomillashtirish alohida bir predmetni yaxshilash bilan cheklanmaydi; u kelajak fuqarosining ma’naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan kompleks pedagogik siyosatni taqozo etadi. Ana shunday tizimli yondashuvgina “Tarbiya” fanining real tarbiyaviy natijadorligini oshiradi va umumta’lim maktablarida barkamol shaxs tarbiyasiga xizmat qiluvchi barqaror pedagogik muhitni shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T.: 2023.
2. O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni. T.: 2020.
3. O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son qarori “Umumiy o’rta ta’lim muassasalarida “Tarbiya” fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida”.
4. Abdullayeva M. Tarbiya nazariyasi va metodikasi. T.: O’qituvchi, 2021.
5. Jo’rayev R.H. Pedagogik texnologiyalar va tarbiya jarayoni. T.: 2020.
6. Жалилов З. IX-XII асрларда Шарқ мутафаккирлари яратган тарбиявий қадриятлардан олий педагогик таълим жараёнида фойдаланиш технологияларини такомиллаштириш: педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. T.: 2018.
7. Пазилова М. Аждодларимиз меросини ўрганиш жараёнида талабаларнинг ўқув-билиш фаолиятини ривожлантириш механизмлари: педагогика фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Нукус, 2022.
8. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. “Beauty and moral education in eastern pedagogy: opportunities for application in the process of artistic education.” ИКРО журнал 16.01 (2025): 170-172.
9. Pardaboevich, Jumaboev Nabi. “Interpretation of the Problem of Educational use of Aesthetic Views of Eastern Thinkers in Pedagogical Research.” Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL) 3 (2024): 9-9.
10. Pardaboevich, Jumaboyev Nabi. “The application of eastern philosophical aesthetic concepts in artistic education and their interpretation in pedagogical research.” pedagogik islohotlar va ularning yechimlari 14.01 (2025): 218-222.
11. Achilov N., Jo’rayev F. Tarbiya fanini o’qitish metodikasi: o’quv qo’llanma. T.: KITOB NASHR, 2025.
12. Achilov N.A. Termiziy allomalarning pedagogik ta’limotlari: o’quv-uslubiy qo’llanma. Termiz, 2021.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №4(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.